

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Sinovlarda toblangan ijod.....	6
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo ijodiy mahoratining shakllanish omillari	9
S.R.Mirzayeva	
Common features in the life and work of Babur and Navoi.....	13
S.R.Meliboyeva	
Zamonaviy o'zbek she'riyatida sun'iy intellekt va inson hissiyotining badiiy ifodasi muammosi.....	18
Я.И.Нишанов, Х.Жўраев	
Выражение общечеловеческих и национальных особенностей в повествованиях о Юсуфе	23
D.M.Khoshimova	
"Boburnoma" asarining lingvistik xususiyatlari.....	27
Z.T.Hakimova	
Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining leksikografik xususiyatlari	30
Z.T.Hakimova	
Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining tarjimaviy muammolari.....	33
D.O.Umarov	
Roman janri haqida mulohazalar.....	36
D.M.Khoshimova	
An analysis of "Baburnama" in comparison with its translation	39
Я.И.Нишанов, К.С.Туллекова	
Любовь в лирике Сапфо и Марины Цветаевой: сравнительный анализ	42
N.Farmonov	
Naturalism and consumer desire: Theodore Dreiser and the culture of American capitalism	47
Я.И.Нишанов	
Ассоциативно-вербальные сети концепта старость в языковом сознании носителей русского языка.....	51
D.D.G'ulomov	
Assotsiativ syujet: genezesi, nazariy paradigmasi va adabiy tahlili.....	55
K.Egamberdiyeva	
Badiiy adabiyotda ayol ruhiyati va ma'naviy olaminining aks ettirilishi	59
D.M.Abdullayeva	
Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari va unda ota obrazi	67
M.T.Tolibova	
Isajon Sulton hikoyalarining syujet qurilishi	71
A.A.Abduraxmonov	
Halima Xudoyberdiyeva lirikasida oq rang	74
F.X.Nurdinova	
Tarjimada leksik adekvatlikni ta'minlash (E.L.Voynichning "So'na" romanining rus va o'zbek tillari tarjimasi misolida)	77
F.X.Nurdinova	
Tarjima jarayonida milliy o'ziga xoslikni saqlash masalalari.....	81

TILSHUNOSLIK

M.M.Abdullayeva	
Integrating Social-Emotional Learning in foreign language classrooms: benefits and strategies	86
M.Y.Mamajonov	



UO'K: 82.09

**BADIIY ADABIYOTDA AYOL RUHIYATI VA MA'NAVIY OLAMINING AKS
ETTIRILISHI****ОТРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ ДУХОВНОСТИ И ДУХОВНОГО МИРА В ЛИТЕРАТУРЕ****REFLECTION OF WOMEN'S SPIRITUALITY AND SPIRITUAL WORLD IN LITERATURE****Kamola Egamberdiyeva** 

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Namangan davlat universiteti doktoranti, dotsent v.b.

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy adabiyotda ayol taqdiri, uning ruhiyatini hikoyalardagi aks ettirilishi o'rganilgan. Shuningdek, adabiyotshunoslikda ayol ruhiyatini, uning taqdirini tadqiq etish badiiy adabiyotning bosh xususiyatlaridan biri ekanligi tadqiq etilgan.

Аннотация

В статье исследуется отражение женской судьбы и психики в художественных рассказах. Также рассматривается, что в литературоведении изучение женской психики и её судьбы является одной из основных особенностей художественной литературы.

Abstract

This article examines the reflection of women's fate and psyche in fictional stories. It also emphasizes that, in literary studies, analyzing the psyche and fate of women is considered one of the central characteristics of fiction.

Kalit so'zlar: taraqqiyot bosqichlari, hikoya, ayol, badiiy adabiyot, ruhiyat, davr, taqdir.**Ключевые слова:** этапы развития, рассказ, женщина, художественный вымысел, психика, эпоха, судьба.**Key words:** stages of development, story, woman, fiction, psyche, era, fate.**KIRISH**

Zamonaviy o'zbek adabiyotida ko'p yillar mobaynida davom etib kelayotgan bir qancha qahramonlar mavjud, adibalar o'z hikoyalarida ayollar olamini inson hayoti bilan bog'lab, ular orqali chuqur falsafiy fikrlarini ifoda etganlar va ularni tasvirlashda nihoyatda nozik badiiy did va ramziylikka tayanib boradilar. Shuningdek, asosan, ular ayol tabiatidan tashqari uning ruhiyati, ichki olami, ijtimoiy va falsafiy g'oyalarni hamda davr muammolarini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Hikoyanavislar odatda o'z hikoyasida ayol tabiatidagi o'ziga xosliklardan xususan, ayol borlig'i, erkaklarda ucharamaydigan xarakteri, ruhiy olami va taqdir bitigidagi evrilishi tavrilaridan o'rinli foydalanadi. Bu tasvirlar orqali har bir davrlarda ayollarning dardini yoki holatlarini ifodalab berishi osonroq kechgan. Ayrim hikoyanavislar ayol taqdiridan ta'sirlanib, o'z hikoyalarida ayol ruhiyatini ochib beruvchi tasvirlardan foydalanishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayollar tasviri, xususan, ayol qismati qadimdan badiiy obraz yaratish, ruhiy holatni ifodalash va falsafiy mushohadalarni ifodalashda muhim vosita bo'lib kelgan. Zamonaviy adabiyotda ayol ko'pincha hayotning muayyan bosqichi, insonning pirovard yo'li, vaqtning o'tkinchiligi ramzi sifatida talqin qilingan. Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Jamila Ergasheva, Lobar Rustamova, Ma'mura Zohidova, Tillaniso, Nodirabegim Ibroximova, Raxshona Axmedova singari ijodkorlarning hikoyalarida ayol obrazlari ruhiy kechinmalar, qismatning bitigi va hayot falsafasi bilan uyg'un holda yoritiladi.

XXI asr o'zbek hikoyachiligida ayol obraziga murojaat qilish an'anasi davom ettirildi. Ayol adibalar ijodida ayol ruhiyati, kechinalari mavzusi muallifning o'z davridan kelib chiqqan ruhiy

iztiroblari, tashvishlari va umidlarini ifodalashga xizmat qildi. Ayniqsa, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol obrazlari ruhiy tushkunlik, armon va ichki iztiroblar bilan bog'lanadi.

Mustaqillik davri hikoyalarida esa ayol tasviri qahramonning falsafiy mushohadalari, ruhiy o'zgarishlari va shaxsiy kechinmalarini ifodalashda yangicha badiiy mazmun kasb etdi. Tillaniso, Nodirabegim Ibroximova, Raxshona Axmedova kabi hikoyanavislarning asarlarida ayol qismati va ruhiyatining badiiy talqini insonning ichki dunyosi, ijtimoiy-milliy ruhiy kechinmalari bilan uyg'unlashadi. Adabiyotlarda ayol tasvirining ko'p qirraligi, uni ruhiyati bilan bog'lash o'zbek hikoyachiligining asosiy estetik xususiyatlaridan biri sifatida tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Bunda ayol qismati orqali uning ruhiy olami, falsafiy qarashlari, hayotiy izlanishlari badiiy obraz darajasiga ko'tarilganini kuzatish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslikning qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, poetik tahlil metodlari asosiy yondashuv sifatida qo'llanadi. Qiyosiy-tipologik tahlil orqali zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol obrazining talqini qiyoslanadi, turli ayol hikoyanavislarda bu obrazning ruhiy-falsafiy mazmun kasb etishi ochib beriladi. Struktur-semantik metod yordamida ayol tasvirining badiiy vositalar (epitet, metafora, ramz, peyzaj) orqali ifodalanishi, ularning mazmuniy qatlamlari hamda qahramon ruhiyati bilan bog'liqligi tadqiq qilinadi. Poetik tahlil metodologiyasi asosida esa ayol obrazining badiiy-estetik vazifasi, uning qahramon kayfiyati va ruhiy kechinmalarini ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Zaruratga ko'ra, intertekstual tahlil yondashuvi ham qo'llanib, ayol tasvirining jahon hikoyachiligidagi o'xshash talqinlari bilan qiyosiy o'rganilishi mumkin.

Metodologik yondashuvlar uyg'unligi ayol obrazining zamonaviy o'zbek hikoyachiligidagi o'rni, uning qahramon ruhiy olamidagi badiiy ifodasini yanada mukammal tahlil qilish imkonini beradi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Odam yaralishidan taqdirga asir, bandi. Shuning uchun ham u banda, deb ataladi. "Banda" – bandi, qul, deganidir. "Ayol va qismat, shaxs va taqdir" bitik o'rtasidagi munosabat tadqiqi, xoh falsafada bo'lsin, xoh adabiyotda, o'z-o'zidan absurdga olib keladi. Negaki, odam aqli yetgan hodisani izohlay biladi, mantiqiy nihoyasini ko'rish mumkin bo'lgan holatlarda bashorat qila oladi. Ammo u hech qachon o'z taqdirini bila olmaydi. Kishi hayoti istalgan bir soniyada mutlaqo kutilmagan va bashariy mantiqqa muvofiq bo'lmagan o'zanga tushib ketishi mumkin[1,162].

Ayol taqdiri, umuman, butun yorug' olam ilohiy aql asosida yaralgan va boshqarilayotir. Unda ayolning bo'lish-bo'lmasligi faqat ayolning o'zigagina ahamiyatlidir. Hayvonot, nabotot dunyolari insonlarsiz mavjud bo'la oladi, ammo insonning ularsiz yashay olishi dargumon. Shu holida yana ba'zi ayollarning taqdir hukmiga aralashishga, uning yo'nalishini o'zgartirishga urinishlari ayanchli.

Har bir ayol o'zini va atrofini o'rab turgan borliqni idrok etishga, tushunishga intilib yashaydi doim. Aqli yetganlarni izohlab, o'sha kuzatuvlari asosida yashashga urinadi. Ammo bandaga kelajak haqida bilish berilmagan. Kelajak ilohiy parda ortiga yashiringan. Payg'ambarimiz (s.a.v.) aytganlariday, "Keyingi nafasimni olish nasib etarmikan" degan o'limga doimiy tayyorlik hissi har bir musulmonda mavjud bo'lishi kerak. Kelajak biz uni bilaolmasligimiz bilan jozibalidir. Agar ayol o'z taqdiri qanday kechishini bilish qudratiga ega bo'lganida edi ayol bugungi taraqqiyotiga erishmagan bo'lardi. Zotan, hayotim bari bir mana shunday yakunlanadi, deya hamma narsaga qo'l siltab, beparvo yashash ustun bo'lardi. Chindan ayol o'zini nima kutayotganini aniq bilib tursa, uni hech narsa bilan qo'rqitib ham, umidlantirib ham bo'lmaydi. U barchasiga ko'nikib ulguradi. Holbuki, qodir Alloh ayolga so'nggi nafasgacha tavba qilish, yaxshi ishlarni amalga oshirish, O'ziga mushkulotlarini oson qilishini so'rab iltijo etish huquqini ato etgan.

Ma'lumki, sovet davrida badiiy asarda ayoldan ko'ra ko'proq uning mehnati, mafkuraviy qarashlarini tasvirlash muhim sanalar edi. Istiqlool adabiyotida esa ayol ishchi kuchi emas, balki to'laqonli mustaqil subyekt sifatida tasvir etilmoqda. Ayolning ichki va tashqi olamini, ruhiyati, qalbi, o'y-fikrlarini ochib berishga e'tibor qaratilyapti. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy muhitda, o'ziga xos psixologik munosabatlarda ayollarning fikri va ongidagi o'zgarishlar, yangicha qarashlar badiiy ifodasini topib bormoqda.

Istiqlool davri adabiyoti namunalarida, umuman, odam, xususan, ayol obrazini tasvirlash borasida yangilanish sodir bo'ldi. Agar oldinlari badiiy asarlardagi ko'pchilik o'zbek ayollari

ADABIYOTSHUNOSLIK

chorasiz, ojiza, mushfiq, mazluma sifatida tasvirlangan bo'lsa, mustaqillik davrida ayol kutilmagan qirralari bilan tasvirlana boshladi. Salomat Vafo asarlarida turkona jangari tabiatli, birmuncha yovvoyi, isyonkor ayol gavdalansa, Jamila Ergasheva asarlarida muloyim, mehribon, kechirguvchi, keng fe'lli chin o'zbek ayoli tasvirlanadi. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida tasvirlangan ayol obrazlari o'ta serqirra ekani bilan ajralib turadi. Zulfiya Qurolboy qizi ham S. Vafo kabi so'zni avaylab ishlatmaydi. Tasvirda, joyi kelsa, kuydiruvchi, o'rtantiruvchi so'zlarni ayamay qo'llaydi. Shuning uchun ham ba'zan uning bitiklaridagi ayollar yoqimsizroq, sovuqroqday ko'rinadi. Ayni shu jihati bilan kitobxon xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Aynan og'riqli va zalvorli so'zlar esdan chiqmaydigan obraz yaratishga yordam beradi. Yozuvchi asarlarida ayol obrazlarini kitobiy qilib silliqlab, illatlardan xalos etib tasvirlamaydi. Iflos odamni butun iflosligi, bechorani borliq oqizligi bilan ayamay tasvirlashga urinadi.

Mustaqillik – buyuk ne'mat. Unga erishish yo'lida minglab yurt farzandlari jon berdi. Biroq mustaqil bo'lib davomli yashash, mustaqillikka erishishdan ko'ra qiyin va murakkab jarayondir. Shu ma'noda, O'zbekiston mustaqilligining ilk yillari xalqimizga iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ruhiy jihatdan oson bo'lmagani tayin. Uzoq yillar davomida, asosan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va sanoat xom ashyosi yetkazib berishga ixtisoslashgan davlat iqtisodiyoti deyarli bankrot holatiga keldi. Ishsizlik, uning ketidan yo'qchilik yuzaga keldi. Boshqa tarafdin, yagona mafkura atrofida birlashib, shu mafkurani o'z e'tiqodi darajasiga ko'targan biroq bu "e'tiqod"ning yolg'on ekanini anglab yetgan jamiyat ma'naviy jihatdan kuchli falajlandi.

Mazkur "falajlik"ka professor Ozod Sharafiddinov mana bunday izoh beradi: "...ma'naviy suyanchig'i barbod bo'lgan, ixlos bilan ishongan ideallari sarob bo'lib chiqqan salkam 20 million odam! Hayot yo'lining yarmidan ko'pini o'tib qo'ygach, birdan o'tgan umri behuda ketganini anglab qolgan, dunyoni poklashdek oliy niyatga xizmat qilyapman deb o'ylagan, aslida esa buning o'rniga o'zi butkul kirlanib bitgan 20 million inson. Insoniyat tarixida hali hech qachon bunaqa katta falokat, bunchalik hududsiz fojia ro'y bergan emas edi va ehtimolki, bundan keyin hech qachon ro'y bermas xam"[2,53]. Ustoz adabiyotshunos sobiq sovet xalqlarining istiqbolga erishgan ilk yillaridagi ma'naviy-ruhiy evrilishlarga bejiz "hududsiz fojia" deya tarif bermaydi. Sababi sovet ittifoqi suyanib kelgan kommunistik mafkura shunchaki shior emas, balki bu hududda yashovchi qariyb 300 million odamning olamni bilish vositasi edi. Ya'ni kommunistik mafkura ayolning yashash tarzi, orzu-istaklari, moddiy ehtiyojlari, ideal va maqsadlarini belgilab beruvchi hayotiy dastur bo'lgan.

Mustaqillikdan so'ng Sovet ittifoqining boshqa xalqlari qatorida o'zbek jamiyati ham mazkur hayotiy dasturni nafaqat yo'qotdi, balki uning puch ekanini anglab yetdi. Endi ular sotsializmning butunlay ziddi bo'lgan kapitalizm qonuniyatlari asosida hayot kechirishi, shunga mos ravishda orzu-istaklari, ideal va maqsadlarini qaytadan belgilab olishi zarur edi. Ayni shu murakkab jarayon O'zbekistonning yangi tarixida o'tish davri nomi bilan muhrlanib qoldi.

O'tish davri keng qamrovli tushuncha bo'lib, davlat va jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan yangi bir tuzum, muhitga o'tishini anglatadi. Balki yangi qonun va qarorlar bilan siyosiy-iqtisodiy jihatdan yangi tuzumga moslashish nisbatan oson kechar, biroq millatning madaniy, ruhiy-ma'naviy jihatdan yangilanishi, bozor munosabatlariga moslashishi oson kechmaydi. Mazkur jarayonda, ayniqsa, ziyolilar qiyinchilikka duch keladi. Bu haqda professor Umarali Normatov shunday yozadi: "Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tish oson kechadigan jarayon emasligini hammadan ko'ra ijod ahli yaxshi biladi, teran his etadi. Shaxsan o'zim guvoh bo'lgan hodisalarga, qolaversa, o'z tajribamga tayanib ayta olamanki, bu jarayon shavqi va og'riqlarini, avvalo, ijodkorlarning o'zlari tatib ko'rganlar"[3].

Mustaqillik davri milliy adabiyotimizda eksperimentlar, ijodiy tajribalar davri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi qariyb 70 yil davomida sosrealizm belgilagan chegaralardan chiqmay ijod qilgan, shu metod asosida fikrlagan, kerak bo'lsa, olamni shu metod asosida tushungan va talqin qilgan ijodkor ruhi endi ozod bo'lgandi. Bu haqida aynan o'tish davri yillarida faol ijod qilgan yozuvchi Ulug'bek Hamdam shunday deydi: "Bu tamomila yangi davr edi. Lekin, buni qarangki, yangi davrda yangi adabiyotning zimmasiga hech qanday mafkuraviy vazifa yuklatilmadi, u o'z holiga qo'yildi"[4].

Albatta, biz milliy hikoyachiligimizdagi ijodiy tajribalarga alohida to'xtalib o'tamiz. Mazkur bobda faqat o'tish davriga xos ayrim ijodiy tajribalarga, aniqrog'i, kapitalistik tuzumga moslashishga

urinayotgan shaxs, ayol qismati va ruhiyati konsepti yuzasidan qilingan eksperimentlarga to'xtalamiz.

Adabiyotning markazida ayol turadi. Shunday ekan, sho'ro adabiyoti va istiqlol adabiyotini farqlovchi eng muhim omil ham ayol talqinida, adabiyotdagi ayol konsepsiyasida ko'rinadi. "XX asr yangi o'zbek adabiyoti, – yozadi Umarali Normatov, – shaxs talqini bobida alohida bosqichni tashkil etadi. Muayyan sabablarga ko'ra, asr adabiyotida shaxsni ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida ko'rsatish ustuvorlik qildi"[5]. Olim nazarda tutgan "ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida"gi shaxs yuqorida qayd etilgan ayolning ziddi – ijtimoiy odamdur.

O'tish davri ijodkorlar chekiga yangi davrni anglash, kapitalistik jamiyatda ayol maqomi, uning qismati, ruhiyati, axloqi, ideal va maqsadlarini belgilash, bir so'z bilan aytganda, yangi ayol qahramonni yaratish vazifasini yuklar edi. Buni teran his qilgan ijodkorlar qator asarlar yaratdilar. Shu o'rinda o'tish davri deb ataluvchi tarixiy bosqich va o'tish davri adabiyoti deb ataluvchi madaniy bosqichni o'zaro farqlab olishga zarurat sezamiz. Ma'lumki, o'tish davri deb atayotgan qariyb o'n yillik davr oralig'ida milliy adabiyotimizda ko'plab hikoyalar yaratildi. Biroq ularning hammasiga ham o'tish davri adabiyoti namunasi sifatida qaray olmaymiz. Professor Yo'ldosh Solijonov o'tish davri adabiyoti haqida so'z yuritarkan, shunday yozadi: "Bozor munosabatlari o'z-o'zidan insonning jamiyat, oila, jamoa, o'zga yurt va odamlar o'rtasidagi ziddiyat hamda aloqalar silsilasini ham yuzaga chiqaradi. Bunday vaziyatda turmushini o'nglash uchun urinayotgan shaxs manfaati bilan yangilanishga yuz tutayotgan jamiyat va siyosat manfaatlar o'rtasida o'zaro to'qnashuvlar vujudga keladi"[6]. Bizningcha, olim nazarda tutgan yangi tuzumga moslashishga urinayotgan ayol va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar ifodasi o'tish davri adabiyotini belgilovchi eng muhim omildir. Lekin mustaqillikning dastlabki o'n yilligida yozilgan barcha hikoyalarda ham jamiyatda bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga o'tish vaqtidagi ijtimoiy-ruhiy, madaniy evrilishlar keng miqyosda tasvirlanmagan. Aniqrog'i, bu barcha hikoyanavislarining ham badiiy- ijodiy maqsadiga aylanmagan. Shunday ekan, o'tish davri romanlari deganda zamon ijtimoiy kayfiyatini ifodalagan, davr va shaxs ziddiyatlari tasvirini o'z badiiy maqsadiga aylantirgan asarlarnigina tushunishimiz maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi talablarga Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Jamila Ergasheva, Lobar Rustamova, Difuza Qo'ziyeva, Ma'mura Zohidovaning bir qator hikoyalari juda mos keladi. Biz ularda o'tish davri manzaralarini bor murakkabliklarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Sanalgan adibalarining hikoyalari o'tish davrini hikoyanavislik kontekstda taftish etilgani, bozor munosabatlariga qadam qo'ygan jamiyatning ko'p tarmoqli badiiy modelini yaratib, olam va odam munosabatlari haqida yaxlit badiiy konsepsiya taqdim etgani bilan qadrlidir. Ya'ni bu hikoyalarda o'tish davrida jamiyat ahli ro'baro' kelgan muammolar, ayniqsa, ziyolilarning iztiroblari, ruhiy-ma'naviy evrilishlari, buning sabab va oqibatlari qalamga olinganki, mazkur omillar hikoyalarning nafaqat muvaffaqiyatini, balki unikalligini ta'minlaydi.

O'tish davri ijodkorlari oldidagi eng muhim muammo yangi davrda ayol maqomini belgilab olish edi. Ya'ni kapitalistik jamiyatda yashashni boshlagan ayolning badiiy konsepsiyasini yaratish zarurati tug'ildi. Bu yo'lda S.Vafo, Z.Qurolboy qizi, J.Ergasheva, L.Rustamova, M.Zohidova kabi hikoyanavislar o'tish davrini baholashga, unda ijtimoiy, iqtisodiy, ruhiy-ma'naviy muvozanatni ta'minlovchi omillarni izlab topishga, kapitalistik jamiyatda "Ayol kim?", "Uning hayotiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?", "U barqaror va farovon jamiyatni qanday quradi?" kabi savollarga javob izlashga urinishgan.

1991-yil O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qildi. Qariyb bir yarim asr davom etgan mustamlakadan so'ng xalqimiz nafaqat siyosiy- iqtisodiy jihatdan, balki, tom ma'noda, ruhiy-ma'naviy jihatdan erkinlikka erishdi.

Mustaqillikdan so'ng jamiyatda qaror topgan sifat o'zgarishini bir so'z bilan *plyuralizm* deyish mumkin. Zotan istiqlolning dastlabki yillarida yangi jamiyat xilma-xil qarashlar, g'oya va manfaatlar ustiga qurila boshlandi. Ayni holat adabiy jarayonda ham kuzatildi. "O'zgarishlarning mohiyati shundaki, ijodkor tafakkuri millat mentalitetiga yot mafkura asoratidan ozod bo'ldi"[7].

Istiqlolning dastlabki yillarida zamonaviy o'zbek hikoyachiligi ijodiy tajribalar maydoniga aylandi. Buning bosh sababi necha o'n yillar davomida badiiy- g'oyaviy tushov bo'lgan mafkuradan adabiyotning ozod etilishi edi. Ya'ni erkin adabiyot, erkin qahramon haqida aniq badiiy

ADABIYOTSHUNOSLIK

konsepsiyaga ega bo'lmagan ijodkorlar tabiiy ravishda tajribalarga qo'l uradilar va turli qarash va g'oyalarga bog'liq ravishda ayolning turfa xil badiiy konsepsiyalarini taqdim etadilar.

Milliy adabiyotning tarixiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Har qanday katta ijtimoiy o'zgarishlar – inqiloblar, urushlar, mustaqillik, globalizatsiya, siyosiy islohotlar yoki texnologik taraqqiyot – adabiyotda o'z ifodasini topadi.

Jamiyatdagi o'zgarishlar va milliy adabiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhim ahamiyatga ega. Milliy adabiyot – xalq ruhiyatining, badiiy tafakkurining, orzu-umidlari va dardlari, ruhiy kechinmalarining ifodasidir. Jamiyatda sodir bo'layotgan katta siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar hikoyanavislar e'tiboridan chetda qolmaydi. Ular o'z hikoyalarida yangi ijtimoiy munosabatlarni, ayollarning yangicha fikrlashi va o'zligini anglash jarayonlarini, eskilik va yangilik to'qnashuvini, milliy qadriyatlarning qayta baholanishini yoritadilar. Ko'p yozuvchilar siyosiy repressiyaga uchraganlar. A. Qodiriy, Cho'lpon, A. Qahhor, Said Ahmad va boshqalar shular jumlasidandir. Biroq ayrim yozuvchilar ijtimoiy haqiqatni ramziy timsollar orqali ifodalashga harakat qilganlar.

Ma'lumki, XX asr avlodida buyuk islohotchi ma'rifatparvar Ismoilbek Gaspirali g'oyalari va uning "Tarjumon" gazetasi ta'sirida Turkiston xalqlari tarixida misli ko'rilmagan bir ijtimoiy harakat – jadidchilik harakati – Milliy Uyg'onish sodir bo'ldi. Turkiston hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, adabiyot va san'at sohasida ham jonlanish, uyg'onish yuz berdi. Yurtimizda o'tgan asrning 10-yillarida yangi madaniy o'zgarish – yangi adabiyot, ya'ni jadid adabiyoti maydonga chiqdi: Mahmudxo'ja Behbudiyning mashhur "Padarkush" dramasi yozilib, sahnaga qo'yildi; jadidchilik harakatining yana bir ulug' yo'l boshchisi Fitrat "Munozara" asari bilan jadid nasrini boshlab berdi[8,22]. O'zbek realistik hikoyachiligi esa Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi bilan boshlanadi. Adib bundan avval "Juvonboz" hikoyasini yozgan bo'lsa ham "Uloqda" chinakam badiiy asar edi.

Cho'lponning "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz", "Oq podshoning in'omi" singari hikoyalarida esa 20-yillar hayoti haqqoniy, ta'sirchan ifodalangan. Fitratning "Qiyomat", G'. G'ulomning "Elatiyada bir ov", "Hiylai shar'iy" kabi hajviy hikoyalari 20-30 yillari juda mashhur bo'ldi. Ulug' adib G'. G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi badiiy tariximizni yorqin tasvirlagan bir sahifasi bo'lishi mumkin.

O'zbek hikoyachiligining janr sifatida qaror topishi va shakllanishi bevosita Abdulla Qahhor ijodiy faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Bu san'atkor yozuvchining hikoyalari XX asrning 30-yillaridan boshlab xalqimiz o'rtasida, keyinroq sobiq sho'rolar mamlakatining barcha respublikalarida keng mashhur bo'ldi. O'tmish davrning tazyiqlari ostida kun kechirgan chorasiz ayollar ruhiy dunyosini aks ettirgan hikoyalar yozildiki, bunda "Anor", "Dahshat", "Bemor", "O'g'ri", "Ming bir jon" kabi bir qancha hikoyalarni tilga olmasligimiz mumkin emas. Ayol ichki olamida kechayotgan murakkab jarayonlarni kichik janr imkoniyatlari doirasida ham badiiy teran tadqiq eta olgan san'atkor A. Qahhor o'zbek realistik hikoyachiligining asoschisidir. Bu yuksak e'tirof XX asr o'zbek adabiyotshunosligi chiqargan haqqoniy xulosadir. A. Qahhor hikoyalari milliy adabiyotimiz tarixining yorqin sahifalaridandir.

Ayni haqiqatlardan biri shundaki, o'zbek hikoyachiligini har jihatdan jahon hikoyachiligining klassik namunalari bilan bellasha oladigan badiiy barkamol asarlar bilan boyitgan adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevdir. Uning hikoyalari faqat o'zbek hikoyachiligida emas, balki XX asr o'zbek nasrida ham butun bir davr bo'ldi deb baralla aytish mumkin. Bu san'atkor yozuvchi hikoyalarida XX asr ikkinchi yarmidagi o'zbek hayoti keng va badiiy yuksak tasvirlandi. Yozuvchining bu janrdagi asarlarida zamondoshlarimizning insoniy fazilatlari-yu, kurashlari, tashvishlari-yu, quvonchlari, boshiga tushgan kulfatlar-u, fojialari, dunyo va ayolni anglash yo'lida chekkan mashaqqat-u, iztiroblari haqqoniy tasvirlandi. Adibning qaysi hikoyasini olmang, hayotning bir parchasi teran, yuksak mahorat bilan ifoda topganini ko'ramiz. Uning ayniqsa, "O'zbek xarakteri", "Bulut to'sgan oy", "Ko'k dengiz", "Yashil "Niva"", "Qadimda bo'lgan ekan", "Yozuvchi", "Xorazm, jonginam..." singari hikoyalarida o'zbekning xarakteri, e'tiqodi, ruhiyati yorqin aks etgan.

O'tgan asrning 70-, 80-yillari o'zbek hikoyachiligi rivojlana boshlandi desak yanglishmaymiz. Shu o'n yilliklarda katta avlod vakillari Said Ahmad, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Asqad Muxtor, Mirmuhsin, Saida Zunnunova kabi adiblarning, Uchqun Nazarov, O'lmas Umarbekov, Omon Muxtor, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik singari navqiron yozuvchilarning yetuk hikoyalari o'zbek

hikoyachiligiga hissa bo'lib qo'shildi. Bu o'n yilliklar hikoyalarining mavzular ko'lami keng, qahramonlari turfa xil edi.

Hikoyachiligimizdagi bugungi avlod vakillarining hikoyalari esa adabiyotda yangi bir ko'tarilish davri boshlanganidan dalolat beradi. Zamonaviy o'zbek yozuvchilari xalqimizning "badiiy tarixi"ni aks ettirishga baholi qudrat hissa qo'shmoqdalar.

Adabiyotimizning yangi avlod vakillari milliy hikoyachiligizning ravnaqiga turli uslubdagi asarlari bilan hissa qo'shmoqdalar. Bugungi jamiyat a'zolari tafakkuri va ruhiyatidagi o'zgarish hamda siljishlar ijodkorlarni yangi ruhiyat va yangi tafakkurga ega ayollar obrazini yaratishga undadi. Bugun hayotga real nazar bilan qaraydigan, bugungi borliqni, unda yashayotgan ayolni, boricha, haqqoniy ifoda etishga intiluvchi ijodkorlar ko'payib bormoqda. Zamonaviy o'zbek hikoyachilik izlanishlar og'ushida rivojlanib bormoqda. Hikoyalarda zamon muammolari tobora keng o'rin egallab, ilgari uchramaydigan yangi-yangi obrazlar paydo bo'lmoqda. Bu janrda faol ijod qilayotgan Erkin A'zam, Xayriddin Sulton, Xurshid Do'stmuhammad, Alisher Ibodinov, G'affor Hotam, Nazar Eshonqul, Salomat Vafo, Luqmon Bo'rixon, Abduqayum Yo'ldosh, Normurod Norqobil, Difuza Qo'ziyeva, Jamila Ergasheva, Zulfiya Qurolboy qizi, Ma'mura Zohidova, Lobar Rustamova, Nodirabegim Ibroximova, Tillaniso, Raxshona Ahmedova kabi hikoyanavislar qalamiga mansub namunalarda ayni shu jihatlar ko'zga yaqqol tashlanadi. Bu hikoyanavislarning har biri hayotni o'z ko'zi bilan ko'rishga, o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, tasvirlashga intiladi. Shu tariqa, ularning eng yaxshi hikoyalari bugungi zamonaviy o'zbek hikoyachiligimizning qiyofasini belgilovchi mezonga aylanadi.

Mustaqillik davridan to hozirgacha ijod erkinligi kengaydi. Senzura bekor qilinib, har qanday mavzular qalamga olindi. O'zbek adabiyotida "milliy uyg'onish" davri boshlandi. Ko'plab obrazlar, diniy va milliy qadriyatlar haqidagi hikoyalar yozila boshladi. Adabiyotda erkin fikr, modernizm, postmodernizm, psixologizm kabi yangi yo'nalishlar rivojlandi. Katta avlod hikoyanavislari bilan bir qatorda yosh avlod ijodkorlari jamiyatdagi o'zgarishlarni shaxsiy nuqtayi nazaridan o'z asarlari orqali yoritib boshladi. Migratsiya, shaxsiy erkinlik, gender masalari, ekologiya kabi mavzular urfga aylandi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida yangicha qahramonlar va mavzular badiiy aksini topmoqda. Jamiyat o'zgargani sari adabiy qahramonlar o'zgardi. Zulfiya Qurolboy qizi, Salomat Vafo, Jamila Ergasheva, Lobar Rustamova, Ma'mura Zohidova, Tillaniso, Nodirabegim Ibrohimova, Raxshona Ahmedovalarning hikoya qahramonlari bir-biridan tubdan farq qilishini tadqiqot jarayonida ko'rish mumkin.

Taraqqiyotning zamonaviy shakligacha jamiyatimiz bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan. Bu islomgacha bo'lgan davr, VIII asrdan esa XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha bo'lgan davr, rus-sovet davri, XX asr oxirida esa yana bir bor yangi milliy yangilanish yuz berdi. Ularning har birida xalq dunyoqarashi, ijtimoiy-psixologik tamoyili bir-biridan farq qiladi. Masalan, zardushtiylik, moniylik, buddaviylik, tangrichilik davrida ajdodlarimiz dunyoqarashi markazida turlicha fikrlash tarzi, olamni uch qavat deb bilish an'anasi yetakchilik qilgan bo'lsa, islomlashgandan keyin hamma narsa islomiy tushunchalar asosida qayta shakllantirildi. Hamma narsa - xalq madaniyati, turmush tarzi, kasb-kori, farzand tarbiyasi, davlat va jamiyat boshqaruvi islomlashdi. "Ayol kim yoki qanday hilqat?" degan savolga u xudoning yerdagi mo'jizasi deb yagona tushuncha bilan yondashish boshlandi. Natijada xalq madaniyati, dunyoqarashi, turmush tarzida qator yutuqlar qo'lga kiritildi. Biroq rus bosqinidan keyin bu tartib birmuncha o'zgardi va sovet davrida esa xudosisizlik qarashlari jamiyatda oldingi o'ringa chiqdi. Mustaqillik yillaridan boshlab esa badiiy adabiyotda yangicha ayol obrazi ifodalana boshlandi. Ularda an'anaviy hikoyachiligimizga xos qator tushuncha (olamning yagona va o'sib, o'zgarib boruvchi voqelik) va tamoyillar (tarixiylik, milliylik, zamonaviylik) yangi zamon nuqtayi nazarida talqin etila boshlandi. Natijada shu paytgacha mavjud bilim va ko'nikmalardagi qator tushuncha, tamoyillarda o'zgarish yuz bera boshladi. Nasrimizda, ayniqsa, hikoyachiligimizda an'anaviy badiiy obrazlarning yangicha ko'rinishi bo'y ko'rsatdi.

Adabiyotshunoslikda ayol ruhiyatini uning qismatini tadqiq etish badiiy adabiyotning bosh xususiyatlaridan biri sanaladi. Bu esa, avvalo, ayolning qarashlari, ayol haqidagi badiiy-estetik tushunchalarni o'rganishni talab etadi. Badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakli ekanligi inobatga olinsa, har bir ijtimoiy sharoitda yangi qahramon, yangi obraz yaratish kun tartibiga chiqishi oydinlashadi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, adabiyotimizda ham yangicha fikrlaydigan, yangicha dunyoqarashga ega ayollar tasvirlana boshlandi. Demak, bugungi zamonaviy o'zbek

ADABIYOTSHUNOSLIK

hikoyachiligida ayol qismati va uning ruhiyatining yetakchi ijtimoiy asosi milliy mustaqillik bo'ldi. Aynan mustaqillik qo'liga kiritilgach, ijodiy erkinlik berildi. Avval obrazlar sobiq tuzum mafkurasining ma'lum tamoyillari asosida tasvirlanishi talab qilingan bo'lsa, endi ayol qanday o'ylasa, yashasa, qanday mavjud bo'lsa, shu bilan birga ijodkor qanday tasavvur qilsa, shunday tasvirlash, uni sof ijtimoiy-psixologik subyekt sifatida real tasvirlash imkonini yaratildi.

Aslida, ayol qismati, uning ruhiyati tasviri konsepti umumfalsafiy tushuncha hisoblanadi. Har bir davrda, har bir jamiyatda ayol va uning qismatini badiiy aks ettirish asosida jamiyat kishilarining dunyoqarashi ifodalangan.

Professor Y.Solijonov inson tafakkuridagi yangilanish va mustaqillik tufayli badiiy ijodga berilgan erkinlik haqida so'z yuritayotib shunday qayd etadi: "Buning samarasi tez orada aniq ko'zga tashlandi, ya'ni jadallik bilan o'sib borayotgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy tafakkur ta'sirida adabiy-badiiy tafakkur ham shakllanib, ulg'ayish yo'liga kirdi. Dastlab odamzodning iqtisodiy bo'ronlar ummonidagi suzish qiyinchiliklari, cho'kish azobi, ikkilanish, bemaqsad quloch otishlarini real tasvirlashdan o'zini tiygan adabiyot ahli yangi asrning ilk yillaridan boshlab, bu mavzuni jiddiy ishlashga kirishdi. Bozor va inson taqdiri keyingi yillar o'zbek nasrining eng ko'p ishlanayotgan muammosiga aylandi"[9]. Bu yerda bozor va ayol taqdiri o'rtasidagi munosabatlar natijasida ayol qismati uning ruhiyati konseptining ma'lum bir qirrasini shakllanishiga urg'u berilgan. Demak, ayol ruhiyati tasvirining xususiy belgilaridan biri bozor va ayol munosabati hamda shu ikki subyekt faoliyati bilan bog'liq voqelik badiiy adabiyotda ayolning yangicha qarashlarini aks ettiradi.

Aslida, ayollar ichki olamida ro'y beradigan o'zgarishlar, yangicha qiyofalarning shakllanishini jamiyat taraqqiyotida doimiy yuz beradigan jarayon deb qabul qilish mumkin. Ayniqsa, bizning avloddek bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga o'tgan jamiyat ahlida bu holat yaqqol iz qoldiradi. Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga – bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish oson kechadigan jarayon emasligini hammadan ko'ra ijod ahli yaxshi biladi, teran his etadi. Bu haqda U.Normatov shunday yozadi: ... Chunonchi, Shukur Xolmirzayevning 90-yillari yozgan esselari, jumladan, "Adabiyot o'ladimi?" maqolasi, ustoz O.Sharafiddinovning "E'tiqodimni nega o'zgartirdim?" badiyasi, shuningdek, kaminaning ustozga ergashib yozgan "O'tilgan yo'lni ba'zi saboqlari" mutolaasi chog'i bunga ishonch hosil qilish mumkin"[10]. Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Jamila Ergasheva, Dilduza Qo'ziyeva, Lobar Rustamova, Ma'mura Zohidova, Nodirabegim Ibrohimova, Tillaniso, Raxshona Axmedova kabi adibalarimiz ham shu davrni ko'rgan, uning shaxs ma'naviy va moddiy hayotiga ta'sirini teran tushungan ijodkorlarimizdandir.

Jamiyatning eski badiiy-estetik ideali o'z umrini yashab bo'ldi, kishilarning mafkuraviy ishonchiga, talablariga, orzu-istaklariga mos ayolni badiiy aks ettirishga ehtiyoj tug'ildi. Shunday ekan so'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilgan qator ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar badiiy adabiyotdagi yangicha ayol ruhiyati tasviri talqinini taqozo etadi.

Izlanishlardan ma'lum bo'ladiki, ijtimoiy tuzum o'zgarishi, taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tilishi badiiy adabiyotda ayol obrazini yaratish, adabiyotshunoslikda esa ayol qismati, kechinmalari, ruhiyati tasviri muammosini kun tartibiga olib chiqadi. Bu muammo har bir davr ijodkor va adabiyotshunoslar tomonidan o'z davriga muvofiq ravishda hal etishga harakat qilingan. Zero N.Rahimjonov yozganidek, "san'atda qahramon masalasi – bu ijodkorning estetik poeziyasi, badiiyati va mahorati bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladigan jarayon. Qahramon – bu ijodiy niyatlar, badiiy-falsafiy g'oyalar qay tariqa, qanaqa shakllarda ifodalanadi, degan gap"[11]. Xuddi shunga yaqin fikrni biz adabiyotshunos A.Ulug'ovning salmoqli maqolasida ham uchratdik[12]. Demak, olimlar zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol qismati, ruhiyati konseptini adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari sifatida hal etishga intilib kelishmoqda. Chunki yaratilayotgan har bir obraz yangi zamon, yangi davr kishilarining o'ziga xos ichki va tashqi olamini ifodalash bilan ayol ruhiyati tasviri talqinlarini yuzaga chiqaradi.

Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol tushunchasi asosini ijtimoiy o'zgarish bilan bog'liq holda o'rgangan M.Xolbekov unga turli adabiy yo'nalish va oqimlar ta'sirini ham to'g'ri payqaydi. "Yangi uslub axtarish payiga tushgan qalamkashlar realizm doirasidan uzoqlashtiruvchi turli falsafiy nazariya va estetik dunyoqarashlar zaminida yangicha uslub hamda janrlarni kashf etishga kirishdilar"[13] degan xulosaga keladi. Bugungi ayol qiyofasini yaratish qiyinligi, bu yo'lda turli chalg'ishlar, asosiy maqsaddan chetga chiqishlar borligiga ishora qiladi. Biroq ijodiy jarayon va ijodkor turli adashish va yo'lini yo'qotishlar ichida yashar ekan "...inson ruhiy kechinmalari va his-

tuyg'ularini bevosita tasvirlash ularning asosiy predmetiga aylandi.... ya'ni turfa rang-so'zlar hamda bo'yoqlardan "mukammal uyg'unlikni"ni yaratishga xizmat qila boshlash"ini to'g'ri ko'rsatgan. Demak, adabiyotshunoslikda ayol obrazi tasvirining taraqqiyoti hamma vaqt ham bir xilda va tekis bo'lmagan deb xulosa qilish mumkin.

So'nggi yillarda milliy, diniy qadriyatlar, uzoq taraqqiyot davrida ajdodlardan o'tib kelgan qator tushuncha va qarashlar yangicha shaklda jonlana boshlandi. Shu tariqa ayol mohiyati mustaqillik yillarida yangicha nuqtayi nazardan badiiy aks ettirila boshlandi. Zero, "hayotning kelib chiqishi va tugab bitishi sabablari, hatto odamlar hayotining chiqib kelish sabablari ham teran bir sirga chulg'angan. Shu sirni tan olish, e'tirof etish borliqqa muayyan ulug'vorlik baxsh etadi"[14]. Demak zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol obrazi tasvirining badiiy aks ettirilishi avvalgi davrdagilardan farq qiladi. Uni tadqiq etish dolzarblik kasb etadi.

XULOSA

Maqolada muxtasar ko'rib o'tilgan qator olimlarning ayol ruhiyati tasviriga oid fikr, qarashlari va ilgari surgan g'oyalarini xronologik tartibga ko'ra tizimlashtirsak, badiiy adabiyotda yangicha ayol qismati va ruhiyati tasviri quyidagi tarixiy-tadrijiy bosqichlarini bosib o'tdi deb hisoblash mumkin:

1. Islom davrida o'zbek adabiyotida ayol komil inson tushunchasi asosida shakllandi va rivojlandi. Bunda ayol haqqa, xudoga yetishishi va unga qo'shilib ketishiga urg'u berildi.

2. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida boshlangan yangicha qarash va xalq hayotidagi o'zgarishlar badiiy adabiyotdagi ayol va uning tasviri ham yangicha bo'lishiga omil bo'ldi. Endi ayol avvalgidek o'ta subyektiv yoki hammasini Yaratgandan kutish kerak degan aqidadagi kishi emas, balki ijtimoiylashgan, o'z muammosi va qiziqishlariga javob izlashga urinayotgan ayol sifatida bo'y ko'rsata boshladi.

3. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol qismati, ruhiyati tasvirining tadrijiy taraqqiyoti bosqichlari quyidagicha: bozor ayollari, tafakkur ayollari, o'zga olam ayollari, g'ayritabiiy xususiyatga ega ayollar, ezgu va yovuz niyatli ayollar.

Maqolada qo'yilgan ilmiy muammo yuzasidan mulohazalarimiz yakunida shuni qayd etamizki, "ayol qismati, uning ruhiyati" uzoq tarixiy asoslarga ega. Har bir davr uni o'zgartiradi, bu esa ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy asoslar, omillar ta'sirida yuz beradi va badiiy adabiyotda o'ziga xos izini qoldiradi. Ana shu "iz" badiiy adabiyotdagi ayol qismati, ruhiyati konseptining yuqorida keltirilgan xronologik tartibdagi taraqqiyot bosqichlari shakli sifatida olinishi kerak.

Ayol botini, uning borlig'i, qismati va ruhiy holatini qalamga olinishi milliy tafakkurda hech bir ijodkorni, ayniqsa, ayol hikoyanavislarni befarq qoldirmagan. Markaziy g'oyasi va qahramonlari ayolni tashkil etgan badiiy asarlar esa bugungi kundagi tadqiqotlarga zamin bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 162.
2. Sharafiddinov O. Dovondagi o'ylar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B.53.
3. Umarali Normatov. Badiyat ko'zgusida millat taqdiri (<https://www.e-adabiyot.uz/maqola/1008>).
4. Hamdam U. Istiqol davri o'zbek adabiyoti haqida ikki og'iz so'z // Jahon adabiyoti, 2019, № 2.
5. Solijonov Y. XXI asr nasri manzaralari // Sharq yulduzi, 2011, №4.
6. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. –T.: O'qituvchi, 1999.-B. 22.
7. Normatov U. Roman ko'zgusida millat taqdiri. XX asr o'zbek adabiyoti masalalari. - Toshkent: Fan, 2012. - B. 34.
8. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim. O'zbek adabiy tanqidi. - Toshkent: Turon-Iqbol. 2011. - B. 291.
9. Ulug'ov A. Qalb qandili. Adabiy-tanqidiy maqolalar. Adabiy portret. Adabiy-tanqidiy ocherk. - Toshkent: Akademnashr, 2013. - B.222-223.
10. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari: maqolalar to'plami. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. - B. 3 67.
11. Jon Golsuorsi. Olti adibning qiyofasiga chizgilar / Jahon adiblari adabiyot haqida. - Toshkent: Sharq, 2004. - B. 46.